

HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINI TASHQI KO‘RINISHI, SHAKLI UZVIYLIGI VA YAXLITLIGINING TA’MINLANISHIGA KO‘RA BAHOLASH

*Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani MMT bo‘limiga qarashli
23-umumiy o‘rta ta’lim maktabining texnologiya fani o‘qituvchisi
Soatova Dilfuza Qobulovna*

Annotatsiya: ushbu dars ishlanmada 9-sinf o‘quvchilariga “HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINI TASHQI KO‘RINISHI, SHAKLI UZVIYLIGI VA YAXLITLIGINING TA’MINLANISHIGA KO‘RA BAHOLASH” mavzusi zamonaviy texnologiyalar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, hunarmandchilik, quroqchilik, savol-javob, ko‘rgazmali.

Tashqi shaklning uzviyligi va yaxlitligi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: Gazlamalardan quroq tikish sa’tini o’rgatish, xalq hunarmandchiligidagi quroqchilik san’ati haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: O’quvchilarni mehnatsevarlikka o’rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Texnika xavfsizligi qoidalari, ish o’rnini tashkil qilish qonun qoidalari tushuntirish, texnika xavfsizligi talablariga to’liq rioya etishni o’rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Ishlov berishda xavfsizlik texnikasi qoidalari. Gul yasash haqida bilim, ko’nikma va malakalarni hosil qilish.

Kommunikativ kompetensiya: Hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a‘zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, to’g’ri qabul qilish, muloqotda o’zidan kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko’rsata olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: Axborot manbalaridan (ommaviy axborot vositalari: jurnal, gazeta, televizor, radio audio-video yozuv, kompyuter) foydalana olish, media vositalardan zarurbo'lgan axborotlarni izlab topa olish.

O'zin o'zini rivojlantirish kompetensiyasi: O'zining qiziqishlariga ko'ra qobiliyatlarini namoyon qila olish, shaxsiy gigiyena va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: O'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: San'at asarlarini tushuna olish va undan zavqlanish.

Darsturi: *Bilimlarni mustahkamlovchi. Yangi bilim beruvchi.*

Dars uslubi: *Tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, ko'rgazmali va boshqalar.*

Dars metodi: *guruhlarda ishlash, "Kim epchil-u, kimchaqqon", "Klaster" metodlaridan foydalilaniladi.*

Dars jahozi: *Tikuvchilik o'quvxonasi, rasm va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar, test materiallari.*

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish b) Davomatnianiqlash c) Darsga tayyorgarlik ko'rish d) O'quvchilar diqqatini darsga qaratish.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tkazish
b) Topshiriqlarni tekshirish c) Amaliy mashg'ulotda tugallanmagan ishning oxiriga yetkazilganini tekshirish

Ma'naviyat daqiqasi

Vatan deganda nimani tushunasiz?

O'QUVCHI: Dunyoda yurtlar ko'p, turli xalqlar yashaydi. Lekin har bir odam bolasining aziz bilgan tuprog'i bor.

O'quvchi: Bu tug'ilib o'sgan joyi, o'z Vatanidir.

O'quvchi: Bizning Vatanimiz esa –jonajon O'zbekiston. Biz mana shu aziz zamin farzandlarimiz.

O'quvchi: Biz ulug' bobolarimizdan meros bu azim tuproqning har zarrasini ko'zga surtamiz, muqaddas hisoblaymiz.

O'quvchi: Bizning O'zbekiston deya atalmish serquyosh Vatanimizda ne-ne mutafakkirlar, qanchadan qancha aziz-u avliyolar, olim-u fuzalolar yetishib chiqqan. Biz bundan faxrlanamiz.

O'qituvchi: Bolajonlar , mustaqil Vatanimiz,bepoyon ona yurtimiz , go'zal tabiatimiz , buyuk ajdodlarimiz haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni, yaxshilikka chorlovchi ertaklarni, hikoya va she'rлarni biz qaysi darsda o'rGANAMIZ?

O'quvchilar: Adabiyot darsida

O'qituvchi: Qani kim menga Vatan haqida she'r aytib beradi?

- Dovrug'i tillarda doston bo'lgan yurt,
Shavkati ham shoni osmon bo'lgan yurt
- Har yog'i chamanzor bog'u bo'stonim
Dunyoda yagonam,O'zbekistonim!
–Ko'ring yurtimni bugun bir bora kelib,
Hay-hay, bir bora emas, ming bora ko'rib. «Avesto» dazarb etilgan manzilgohshudir,
Barchamizda yurt g'ururi –iftixorshudir.

O'tgan mavzuni so'rash va baholash:

1. Zardo'zlikda buyumlar qanday gazlamalardan tayyorlanadi?
2. Zardo'zlikda qanday iplar ishlataladi?
3. Buyumlarni bezashda qanday mahsulotlardan foydalilanadi?
4. Zardo'zlikda qanday jihozlar ishlataladi?
5. O'zbekiston hududida gilamdo'zlik san'atining paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlarini so'zlab bering.
6. Gilam to'qishda qanday jihozlardan foydalilanadi?

Yangi mavzu bayoni.

Buyum shaklining uzviyligi va yaxlitligi kompozitsiyaning asosiy umumlashtiruvchi vositasi hisoblanadi. «Uzviylik»ni yaratgan kompozitsiya shuqadar yaxlitki, uni tashkil etuvchi qismlar tabiiy ravishda shu yaxlit shaklga kiradi, ya’ni u barcha qismlari bilan yaxlit va uyg‘undir. Unga hech narsani qo‘sish, undan hech narsani olib tashlash mumkin emas. Murakkab bo‘lmagan buyum kompozitsiyasining tugalligi shundan iboratki, u butunlay yaxlit haletilgan va xuddi tabiat tomonidan yaratilganday idrok etiladi. Agar buyum bir necha qismdan iborat bo‘lsa, bu qismlarning har biri yaxlit kompozitsiyaga ega bo‘lishi kerak. Buyum qismlari bir-biriga o‘xshash bo‘lsa, ana shu o‘xshashlik ularni birlashtiradi, agar qarama-qarshi bo‘lsa, shu qarama-qarshilikning o‘zi birlashtiruvchi asos bo‘lib qoladi. Kompozitsion yaxlitlikni saqlash uchun ba’zan elementlarni guruhashlashga, ayrim qismlarni guruhlarga birlashtirishga harakat qilinadi. Bu usul nazariy jihatdan idrok qilish jarayoniga asoslanadi. Odatda, idrok qilish jarayoni ikki asosiy bosqichga – tahlil va sintezga bo‘linadi. Odam buyumni avval o‘rganadi – tahlil qiladi, so‘ng umumlashtiradi – sintezlaydi. Qismlarni sintezlash, ularni qandaydir yaxlit bir ko‘rinishga joylashtirib chiqish kishiga estetik zavq bag‘ishlaydi. Bizda u yoki bu buyumni mushohada qilayotgan kishi sifatida rag‘bat tug‘ilmas ekan, mazkur buyumdan zavq ololmaymiz. Biz zardo‘zlik buyumlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, diqqatimizni, avvalo, bichim, naqsh kompozitsiyalariga, oxirida tikish va bezatish usullari kompozitsiyalariga qaratamiz va ularni o‘zaro uyg‘unlikda ko‘ramiz. Bu uyg‘unlikdan zavqlanamiz, chunki bu uyg‘unlikda biz go‘zallikni his etamiz. Uzviy kompozitsiyaning eng muhim sifati uning qismlarining bir-biriga bo‘ysunishidir. Bu sifat murakkabroq kompozitsiyalarga xosdir. Zardo‘zlik kompozitsiyalari ana shunday murakkab kompozitsiyalardan bo‘lib, bu kompozitsiya bichim kompozitsiyasi, naqshlar kompozitsiyasi, tikish va bezatish usullari kompozitsiyalarining o‘zaro uyg‘unligidan iborat. Bu murakkab kompozitsiyada tikish va bezatish kompozitsiyalari naqsh kompozitsiyalariga, naqsh kompozitsiyalari esa bichim kompozitsiyalariga bo‘ysunadi, lekin ular butun kompozitsiyaning «o‘zida tugallangan» mustaqil qismlardir (38-rasm). Hunarmandchilik mahsulotlarini tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligi ta’minlanishiga ko‘ra baholash uchun bizga hunarmandchilik mahsulotlari kerak bo‘ladi (39-rasm).

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Hunarmandchilik mahsulotlari qanday talablarga javob berishi kerak?
2. Tashqi shaklning uzviyligi va yaxlitligi deganda nimani tushunasiz?
3. Tashqi shaklning uzviyligi nimalarga bog‘liq?
4. Xaridorga hunarmandchilik mahsulotini mustaqil tayyorlang.

Mustaqil qilish: 39-rasmda ko‘rsatilgan zardo‘zlik mahsulotlariga ta’rif bering.

Tashqi shakl iuzviyligi va yaxlitligi, naqsh kompozitsiyalarining tuzilishi qay darajada
to‘g‘ri tanlanganligini asoslab bering va o‘z mahsulotingizni tayyorlang.

Dars yakuni: Darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni rag’batlantirish

Uyga vazifa: Ishni yakunlash